

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/10.12.2019.T.03.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

KURBANBAYEVA MIYASSAR SHIRAZADINOVNA

**ANGREN QO'NG'IR KO'MIRINI KALORIYASINI QAYTA ISHLASH
ASOSIDA OSHIRISH**

05.05.04 – Sanoat issiqlik energetikasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

**Texnika fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)
по техническим наукам**

**Content of the dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)
on technical sciences**

Kurbanbayeva Miyassar Shirazadinovna

Angren qo‘ng‘ir ko‘mirini kaloriyasini qayta ishlash asosida oshirish..... 3

Курбанбаева Мияссар Ширазадиновна

Повышение калорийности Ангренского бурого угля на основе его переработки..... 23

Kurbanbaeva Miyasar Shirazadinovna

Increasing the calorific value of Angren brown coal based on its processing..... 43

E‘lon qilingan ishlar ro‘uxati

Список опубликованных работ

List of published works..... 47

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA
UNIVERSITETI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
DSc 03/10.12.2019.T.03.03 RAQAMLI ILMIY KENGASH**

**ISLOM KARIMOV NOMIDAGI
TOSHKENT DAVLAT TEXNIKA UNIVERSITETI**

KURBANBAYEVA MIYASSAR SHIRAZADINOVNA

**ANGREN QO'NG'IR KO'MIRINI KALORIYASINI QAYTA ISHLASH
ASOSIDA OSHIRISH**

05.05.04 – Sanoat issiqlik energetikasi

**TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PHD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Toshkent – 2024

Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/T2892 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetida bajarilgan.
Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.tdtu.uz) hamda «ZiyoNet» axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar: Babaxodjayev Raximjan Pachexanovich
texnika fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar: Klichev Shavkat Isakovich
texnika fanlari doktori, katta ilmiy xodim

Shaislamov Alisher Shabduraxmanovich
texnika fanlari nomzodi, dotsent

Yetakchi tashkilot: "Issiqlikelektrloyiha" AJ

Dissertatsiya himoyasi Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti huzuridagi DSc.03/10.12.2019.T.03.03 raqamli ilmiy kengashning 2024 yil «15» iyun soat 10⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: 100095, Toshkent shaxri, Universitet ko'chasi, 2. Tel.: (99871) 246-46-00; faks: (99871) 227-10-32; e-mail: tsu_info@edu.uz).

Dissertatsiya bilan Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (390 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 100095, Toshkent shaxri, Universitet ko'chasi, 2. Tel.: (99871) 207-14-70).

Dissertatsiya avtoreferati 2024 yil «14» iyun kuni tarqatildi.
(2024 yil «10» iyun dagi 6 raqamli reestr bayonnomasi).



K.R. Allayev
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash raisi,
texnika fanlari doktori, professor,
akademik

I.U. Raxmonov
Ilmiy darajalar beruvchi
ilmiy kengash ilmiy kotibi,
texnika fanlari doktori, professor

A.M. Mirzaboyev
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy seminar rais o'rinbosari,
texnika fanlari doktori, professor

KIRISH (doktorlik (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzuning dolzarbligi va zarurati. Jahonda elektr energiyani ishlab chiqarishning samaradorligini oshirish, sarflanadigan yoqilg'ining miqdorini kamaytirish, sifatini yaxshilash, atrof-muhitga tarqaladigan zararli gazlar miqdorini kamaytirish, ko'mirning namlik va kul miqdorini kamaytiruvchi usullar va qurilmalarni tahlil qilish va shular asosida yangi texnologiyalarni ishlab chiqish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Hozirgi kunda rivojlangan mamlakatlarda "... elektr energiya ishlab chiqaruvchi korxonalariga, xususan issiqlik elektr stansiyalariga 2022 - yilda yo'naltirilgan yoqilg'ilar miqdori 12.5 mlrd t.ni tashkil etsa, shundan 30% ga yaqini ko'mir hissasiga to'g'ri keladi"¹. Bu ko'rsatkich AQSH da 19.7% ni Rossiyada 17.3% ni tashkil qiladi. Shu o'rinda dunyo miqyosida ko'mirga bo'lgan talabning ortishi uning sifat xususiyatlarining buzilishiga va elektr energiya ishlab chiqaruvchi korxonalarining samarali ishlashiga to'sqinlik qilish kabi salbiy oqibatlarga olib keladi. Bu borada, ko'mirning sifatini yaxshilashga va issiqlik berish qobiliyati qiymatini yangi texnologiyalar bilan oshirishga alohida e'tibor qaratilmoqda.

Jahonda quritish va boyitish qurilmalarini kimyo, qishloq xo'jaligi, sog'liqni saqlash, energetika sohalarida qo'llash orqali moddalarga ishlov berish asosida samaradorligini oshirish imkonini yaratuvchi yangi texnologiyalarni joriy etishga qaratilgan ilmiy tadqiqotlar olib borilmoqda. Jumladan shu yo'nalishda issiqlik elektr stansiyalarida yoqilg'ining namlligini, kul miqdorini, issiqlik berish qobiliyatini inobatga olgan holda, 1 GJ issiqlik ishlab chiqarishga sarflanadigan shartli yoqilg'i qiymatini kamaytirish bo'yicha tadqiqotlar ustuvor hisoblanadi. Shu bilan birga, ko'mirning sifatini yaxshilovchi namlik va kul miqdorini kamaytiruvchi usul va qurilmalarni tahlil qilish, afzalliklarini baholash va shu asosda yangi usulni taqdim etish, hisoblashlar orqali usulning issiqlik jarayonlarini tasniflovchi matematik modelini va hisoblash algoritmini yaratish, gidrodinamik jarayonlarning kechishini tahlil qilish imkonini beruvchi dasturiy mahsulotlarni ishlab chiqish dolzarb vazifalardan hisoblanmoqda.

Respublikamizda iqtisodiyot tarmoqlari kesimida energiya sig'imdorligini 2030- yilga qadar bir yarim barobarga kamaytirish maqsadida yangi texnologik yechimlarni yaratish va takomillashtirish hamda joriy etishga doir keng ko'lamli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. 2022-2026- yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasida, jumladan «Iqtisodiyotni elektr energiyasi bilan uzluksiz ta'minlash hamda "Yashil iqtisodiyot» texnologiyalarini barcha sohalariga faol joriy etish, iqtisodiyotning energiya samaradorligini 20 % ga oshirish va havoga chiqariladigan zararli gazlar hajmini 20 % ga qisqartirish"² bo'yicha vazifalar belgilangan. Ushbu vazifalarni amalga oshirishda, xususan, sanoat korxonalarida elektr energiya va issiqlik ishlab chiqarish jarayonlarining energiya sig'imdorligini kamaytirish yo'nalishida energiya resurslaridan oqilona foydalanish bo'yicha kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqib, ularni joriy etish, yoqilg'i

¹ https://ru.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/coal_consumption/

² O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. <https://lex.uz/docs/-5841063>

resurslarining sifatini oshiruvchi usullarni modellashtirish, klassik va zamonaviy usullarni tahlil qilish asosida elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarishga sarflanadigan shartli yoqilg'ini miqdorini kamaytirishga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish muhim hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 -yil 28 -yanvardagi PF - 60 -son «2022-2026 -yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 -yil 13 -iyundagi PQ 3054 - son « 2017 - 2021-yillarda ko'mir sanoatini yanada rivojlantirish va modernizatsiya qilish dasturi to'g'risida»gi, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 - yil 16 - fevraldagi PQ - 57 “Qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida”gi, “O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 -yil 10- apreldagi ijtimoiy soha obyektlarining isitish tizimlarini davlat-xususiy sheriklik asosida modernizatsiya qilish to'g'risida”gi PQ - 118 - son qaroriga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritish haqida”gi PQ-185 - son qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Dissertatsiya ishi bo'yicha tadqiqotlar respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining II. “Energetika, energiya va resurs tejamkorlik” ustuvor yo'nalishiga mos keladi.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Past kaloriyalik ko'mirning issiqlik berish qobiliyatini, uning namlik va kul miqdorlarini kamaytirish orqali oshirish bo'yicha yetakchi ilmiy markazlarda va oliy ta'lim muassasalarida, jumladan “Xarkov politexnika instituti” (Ukraina), Moskva davlat tog'-kon universiteti (Rossiya), A.A. Skochinskiy nomidagi “Qattiq yoqilg'ini boyitish bo'yicha integratsiyalashgan ilmiy-tadqiqot va loyiha instituti” Federal davlat unitar sho'ba korxonasi (IOTT) (Rossiya), “Milliy tadqiqot texnologik universiteti” MISiS Federal davlat avtonom oliy ta'lim muassasasi (Rossiya), Javaxarlal Neru texnologiyalar universiteti, Haydarobod (Hindiston), Xitoy tog'-kon texnologiyalari universiteti (Xitoy), Rurkel milliy texnologiya instituti (Hindiston), Xanken milliy universiteti (Koreya), Karlos III Madrid universiteti (Ispanya), Janubi-Sharqiy universiteti (Xitoy) va Toshkent davlat texnika universitetida (O'zbekiston) keng qamrovli ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

Ko'mirning sifatini yaxshilash, kaloriyasini oshirish va mavhum qaynash qatlamli qurilmada quritish hamda boyitish jarayonlarini kechishini o'rganish kabi masalalarni hal qilishga bir qator taniqli xorijiy olimlar, jumladan, A.V. Kuzmin, A.A. Xaydarova, A.P. Tyukin, A.A. Skochinskiy, V.E. Ivanov, I.E. Tiskineeva, V.I. Pogonets, A.A. Kaverin, Yu.A. Kirsanov, V.A. Kuznetsov, V.Yu. Maksimov, V.R. Pusherova, A.A. Yunash, T.P. Zadorojnaya, Z.X. Gabitova, P.G. Romankov, N.B. Rashkovskaya, M.M. Radovanovichlar va bundan tashqari S. Lehmann, M. Buchholz, Stonestreet Pol, Alfred Jongsma, Dongping Tao Mayda, Fredrik Innings, Stefan Heinrich va boshqalar katta hissa qo'shganlar.

Ko'mirni sifatini yaxshilash usullari va qurilmalarini ishlab chiqish,

takomillashtirish va bu qurilmada kechadigan jarayonlarni o'rganishning ilmiy muammolarni hal qilishga O'zbekistonning taniqli olimlar ilmiy ishlari bag'ishlangan. Bulardan: Q.R. Allaev, R.A. Zoxidov, J.N. Muxiddinov, R.P. Babaxodjaev, N.R. Yusupbekov, R.A. Yusupaliev, N.T. Toshboev, Sh.I. Klichov, A.Sh. Shaislamovlar. Olib borilgan ilmiy tadqiqotlar natijasida ko'mirni sifatini yaxshilash, yoqishga tayyorlashdagi murakkabliklarning oldini olish masalalarini yechishda salmoqli natijalarga erishildi.

Sezilarli muvaffaqiyatlarga qaramasdan, qo'ng'ir ko'mirni quritish va boyitish jarayonini bitta qurilmada amalga oshirish va mavhum qaynash jarayoni orqali ko'mirning namligini va kul miqdorini kamaytirish va shu bilan yoqilg'ining issiqlik berish qobiliyatini oshirish bilan bog'liq ilmiy muammolarni yechishning usullarini yanada rivojlantirish imkoniyatini ko'rib chiqish maqsadga muvofiq. Mazkur dissertatsiya ishida elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqishda ishlatiladigan Angren qo'ng'ir ko'mirining sifat xususiyatlarini hisobga olgan holda, quritish va boyitish usul va qurilmalarini tahlil qilish orqali, mavhum qaynash qatlamli quritish va boyitish jarayonlarini bitta qurilmaning o'zida bajara oladigan, yangi usullarni ishlab chiqish, texnologiyani modellashtirish va mavjud kamchiliklarni inobatga olgan holda ko'mirning issiqlik berish qobiliyatini oshiruvchi qurilma ishlab chiqish, qurilmada kechadigan issiqlik va gidravlik jarayonlarni o'rganish asosida yonish issiqligini oshirish usullari taklif etilgan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy tadqiqot rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya tadqiqoti Toshkent davlat texnika universitetining ilmiy-tadqiqot ishlari rejasining "OT-A3-58 «Issiqlik ishlab chiqarishning texnologik sxemasida tutun gazidan maksimal darajada foydalanish orqali issiqlik energiyasini ishlab chiqarishning energiya samaradorligini oshirish» (2017-2018 y.y.), № OT-Atex- 2018-437 «O'rta va uzoq muddatli istiqbolda respublika energetika sektorining yoqilg'i balansini diversifikatsiya qilish bo'yicha ilmiy-texnik yechimlar majmuasini ishlab chiqish» (2018-2020 y.y.)" mavzularidagi loyihalar doirasida hamda "Sanoat issiqlik energetikasi" kafedrasining "Sanoat korxonalarida issiqlik energiyasi va yoqilg'idan foydalanishda samaradorlikni oshirish" mavzusida olib borilayotgan ilmiy tadqiqot yo'nalishi doirasida bajarilgan.

Tadqiqot maqsadi Angren qo'ng'ir ko'mirining issiqlik berish qobiliyatini ko'p kamerali mavhum qaynash qatlamli quritish va yonmaydigan zarrachalardan ajratish qurilmasi yordamida oshirishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari:

Angren qo'ng'ir ko'mirining xossalari va tarkibini hamda mavzuga oid adabiyotlarni tahlil qilish;

ko'mirni quritish hamda boyitishning samarali usuli hamda fizik modelini ishlab chiqish va unda kechadigan gidrodinamik, issiqlik jarayonlari uchun matematik, kompyuter modellarini yaratish;

tadqiqotlarni amalga oshirish maqsadida qurilmaning laboratoriya nusxasini yaratish va tadqiqotlar o'tkazish;

olingan fizik va hisobiy tadqiqot natijalarini solishtirish, jarayonlar uchun empirik tenglamalar olish va qurilmani amaliyotga tatbiq etish.

Tadqiqotning obyekti sifatida ko‘mirning issiqlik berish qobiliyatini oshiruvchi quritish va yonmaydigan zarrachalardan ajratish jarayonlarini birgalikda amalga oshiradigan ko‘p kamerali mavhum qaynash qatlamli qurilma olingan.

Tadqiqot predmeti Angren qo‘ng‘ir ko‘miri ustida olib boriladigan gidrodinamik va issiqlik jarayonlarini tashkil qiladi.

Tadqiqot usullari. Tadqiqot jarayonlarini matematik modellashtirish, gidrodinamik va issiqlik jarayonlarini *MATLAB* dasturida simulyatsion modellashtirish, differensial tenglamalar yechishning Runge-Kutta usuli hamda olingan tadqiqot natijalariga ishlov berishda eng kichik kvadratlar, matematik statistika usullaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ko‘mir namligi va kul miqdorining qiymatlari yuqoriligini hisobga olgan holda namlik va kul miqdorini kamaytirish usullarini baholash asosida mavhum qaynash qatlamli quritish va boyitish qurilmasi yaratilgan;

mavhum qaynash qatlamli qurilmaga berilayotgan ko‘mirning namligi va qaynash balandligi omillarining o‘zgarishini inobatga olgan holda Runge - Kutta usuli asosida mavhum qaynash qatlamining balandligi, quritish agenti harorati hamda quritish vaqtini aniqlash imkonini beruvchi quritish jarayonining matematik modeli takomillashtirilgan;

mavhum qaynash balandligini hisobga olgan holda gidravlik qarshilikning tezlikka bog‘liqligini aniqlash asosida mavhum qaynash qatlamining statsionar holatini ko‘rsatuvchi gaz oqimining kritik tezliklar oralig‘i aniqlangan ($v_{kr1} = 4 \div 8$ m/s; $v_{kr2} = 6 \div 10$, m/s);

mavhum qaynash qatlamli quritish va boyitish qurilmasida namlik va kullilikning bog‘liqlik tavsiflari ko‘rsatkichlarini inobatga olgan holda quritish va boyitish jarayonlarning bir vaqtda sodir bo‘lishi asosida ko‘mirning issiqlik berish qobiliyatini oshirish usuli takomillashtirilgan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

mavhum qaynash qatlamli qurilmada ko‘mirning namligini kamaytirishda quritish egri chizig‘ini hamda quritish tezligi egri chizig‘ini qurish uchun zarur bo‘lgan asosiy parametrlarni hisoblashning algoritmi yaratilgan;

mavhum qaynash qatlamida boyitish jarayonlari kechishida gidravlik qarshilikning o‘zgarishini hisoblash dasturi yaratilgan;

Angren qo‘ng‘ir ko‘mirini quritish va boyitish uchun mo‘ljallangan mavhum qaynash qatlamli qurilmaning tajriba laboratoriya nusxasi yaratilgan;

mavhum qaynash qatlamli qurilmani amaliyotga tatbiq qilish orqali ko‘mirning kaloriyasini qo‘shimcha 4200 - 7100 kJ/kg oshirish imkoni yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqot natijalarining ishonchliligi uslubiy jihatdan asoslangan nazariy issiqlik hisoblarining amalga oshirilishi, termodinamikaning asosiy qonunlariga, issiqlik va massa almashinish nazariyasining klassik usullariga, matematik va fizik qonuniyatlar asosida bajarilganligi, shuningdek, eksperimental tadqiqotlar va imitatsion modul yordamida olingan natijalarning o‘zaro muvofiqligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati past sifatli Angren qo‘ng‘ir ko‘mirini quritish va boyishida mavhum

qaynash qatlamli qurilma konstruksiyalarini yaratishga va ularning issiqlik hisobi nazariyasiga gidrodinamik va issiqlik jarayonlarining ratsional parametrlarini aniqlash bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati elektr va issiqlik energiyasini ishlab chiqarishda past sifatli ko‘mirning ko‘rsatkichlarini oshirish maqsadida qurituvchi va yonmaydigan zarrachalarni ajratuvchi va yoqilg‘i kaloriyasini oshiruvchi qurilmaning yaratilishi va amaliyotda qo‘llanishi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Angren qo‘ng‘ir ko‘mirini mavhum qaynash qatlamli quritish va boyitish orqali issiqlik berish qobiliyatini oshirish bo‘yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

mavhum qaynash qatlamli quritish va boyitish qurilmasi yaratilgan va unga O‘zbekiston Respublikasi Intellektual mulk agentligi tomonidan “Ixtiro patenti” olingan (Polidispers materiallarni issiqlik bilan ishlov berish va yoqish uchun qurilma IAP № 07280., 17.03.2022). Natijada, qurilma yordamida qo‘ng‘ir ko‘mir tarkibidagi kul va namlik miqdorining dastlabki qiymatiga nisbatan kamaytirish va shu orqali issiqlik berish qobiliyatini oshirish imkoniyati yaratilgan;

mavhum qaynash qatlamining statsionar holatini ko‘rsatuvchi gaz oqimining aniqlangan kritik tezliklar oralig‘i “Angren IES” AJ da qurilmaga berilayotgan havo bosimini rostdashda joriy qilingan (“Angren IES” ning 11.01.2024 yildagi № 02-02/47 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, stansiyaga keltirilgan ko‘mirni yoqishga tayyorlash jarayonida namlikni 28-30 % dan 8-10 % gacha va kul miqdorini 40-43 % dan 26-28 % gacha kamaytirish orqali yoqilg‘ining issiqlik berish qobiliyatini qo‘shimcha 4200 - 7100 kJ/kg ga oshirish imkoniyati yaratilgan;

ko‘mirning issiqlik berish qobiliyatini oshirish usuli “Angren IES” AJ da joriy qilingan (“Angren IES” ning 11.01.2024 yildagi № 02-02/47 sonli ma’lumotnomasi). Natijada, quritish va boyitish jarayonlarning bir vaqtda sodir bo‘lishi hisobiga stansiyada 1 kVt elektr energiya hosil qilish uchun sarflanadigan shartli yoqilg‘ining miqdori 1,13 kg dan 0,78 kg ga kamaytirish hisobiga har 1000 tonna ko‘mir yoqilganda 43 750 000 so‘m iqtisodiy samaradorlikka erishish imkoniyati yaratilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 8 ta ilmiy - amaliy anjumanlarda, shu jumladan 6 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjuman va seminarlarda muhokamadan o‘tgan.

Tadqiqot natijalarining e‘lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo‘yicha jami 16 ta ilmiy ish, jumladan, 1 ta ixtiro uchun patent, O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish uchun tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 5 ta maqola, jumladan 4 ta respublika va 1 ta chet el ilmiy jurnallarida hamda 1 ta Scopus bazasiga kiruvchi to‘plamlarda nashr etilgan, 1 ta EHM uchun dasturga guvohnoma olingan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 105 betdan iborat.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tadqiqotning dolzarbligi va zarurati, maqsadi va vazifalari asoslangan, tadqiqot obyekti va predmeti tavsiflangan, tadqiqotning fan va texnikasi rivojlanishining ustuvor yo‘nalishiga muvofiqligi ko‘rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, olingan natijalarning ilmiy-amaliy ahamiyati, tadqiqot natijalari amaliyotga joriy qilinishi, nashr etilgan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi bo‘yicha ma‘lumotlar kiritilgan.

Dissertatsiyaning “**Ko‘mir yoqilg‘isining issiqlik berish qobiliyatini oshirish usullari**” nomli birinchi bobida ko‘mirni quritish va yonmaydigan zarrachalardan ajratish usullari hamda qurilmalari tahlil qilingan. Mavjud texnologiyalardan energetika maqsadlarida ishlatish uchun Angren ko‘mirining kaloriyasini oshirishning mintaqaga mos yo‘llari o‘rganilgan.


Bundan tashqari mavjud xorijiy va mahalliy ilmiy ishlar tahlil qilingan, metod va takomillashtirish yo‘llari hamda kamchiliklarni bartaraf qilish masalasining yechimi qidirildi. Ko‘mirni quritish va boyitishda mavhum qaynash qatlamli usuldan foydalanish bo‘yicha izlanishlar olib borildi. Adabiyotlarni o‘rganish natijasida O‘zbekiston Respublikasida qazib olinadigan qo‘ng‘ir ko‘mirining sifat ko‘rsatkichlari tahlil qilindi (1 – jadval). Jadvaldagi qiymatlar o‘zgaruvchan, shu sababli barcha qiymatlarning o‘rtachasi keltirilgan.

1 – jadval

Angren qo‘ng‘ir ko‘mirining sifat ko‘rsatkichlari

Texnologik gruppaga oid markasi	Sinfi, (bo‘lakchanning o‘lchami bo‘yicha mm)	Sifat ko‘rsatkichi		Quyiyonish issiqligi, Q kJ/kg
		Massa ulushi, %		
		Namlik, W, %	Kul miqdori, A, %	
2 БОМСIII	0-50	33,0	23,8	11286
2 БОМСIII Б-1	0-50	30,0	32,5	10455
2 БОМСIII Б-2	0-50	35,0	46,7	9200
2 БР	0-300	35,5	21,8	17564
2 БЗР	25-500	35,5	21,8	13382

Angren IES da asosiy yoqilg‘i sifatida 2 БОМСIII Б-1, 2 БОМСIII Б-2 markali ko‘mir ishlatiladi. Tadqiqotlarni ham aynan shu markali ko‘mirlarda o‘tkazish maqsad qilindi. Angren qo‘ng‘ir ko‘mirining tarkibi asosan yonuvchi moddalar va ballast qo‘shimchalardan tashkil topgan. Ballast qo‘shimchalar asosan tog‘ jinslari (tosh, qum, shag‘al) va namlik miqdorlarini o‘z ichiga oladi hamda bunday moddalar ko‘mirning kaloriyasini kamaytirishga hizmat qiladi. Shu sababli stansiyaga 1 oy mobaynida keltirilgan Angren qo‘ng‘ir ko‘mirining namlik va kul miqdorlarining o‘zgarishi tahlil qilindi, shu orqali ko‘mir sifatini baholash hamda kaloriyasini oshirish yo‘llarini o‘rganish mumkin bo‘ldi. Tahlillar natijasi 1 - rasmda keltirilgan. Ko‘mirning sifati pastligi stansiyada bir qancha texnik va texnologik muammolarning kelib chiqishiga va samaradorlikning pasayishiga olib keladi.




1-rasm. Ko‘mir tarkibidagi namlik va kul miqdorining tahlili

Yuqoridagi jadvaldan ko‘rinib turibdi ko‘mirning namlik va kul miqdori yuqori, ularni kamaytirish usullari va qurilmalarini tahlil qilish natijasida mavhum qaynash qatlamli quritish va boyitish qurilmasidan foydalanish maqsadga muvofiq ekanligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning **“Tadqiqotni amalga oshirishda fizik, matematik va simulyatsion modellarni yaratish”** nomli ikkinchi bobida tadqiqot qurilmasining fizik modeli, quritish jarayonining matematik modeli hamda boyitish jarayonini hisoblash ishlarini amalga oshiruvchi simulyatsion model keltirilgan.

Ko‘p kamerali mavhum qaynash qatlamli quritish va yonmaydigan zarrachalardan ajratish qurilmasining fizik modeli 2- rasmda keltirilgan.



2-rasm. Mavhum qaynash qatlamli quritish va boyitish qurilmasining fizik modeli:

1- maydalangan polidispers ko‘mir zarrachalarini berish, 2- ko‘mirning keyingi kameralga o‘tishi, 3,4- havo va tutun gazi retsirkulyatsiya aralashmasini berish yo‘li, 5- yonmaydigan zarrachalarni chiqarib tashlash, 6- gazlarning chiqish yo‘nalishi

Qurilmaga ekvivalent diametri 3-10 mm oralig‘ida bo‘lgan ko‘mir zarrachalari kirish yo‘lagi orqali beriladi. Qurilmaning quyi qismidan berilayotgan issiq havo

hamda retsirkulyatsiya tutun gazining ta'siri hisobiga kameraning III qismida diametri nisbatan kichik bo'lgan ko'mir zarrachalari xaotik harakat holatiga keladi va mavhum qaynash qatlamini hosil qiladi. Berilgan ko'mir tarkibidagi zichligi yuqori bo'lgan, nisbatan og'ir, yonmaydigan zarrachalar kameraning II qismida mikrofontan holatidagi harakatda bo'ladi va I moslamadan chiqarib yuboriladi. Ko'mirning uzluksiz berilishi natijasida ko'mir zarrachalari bir biriga urilib maydalanadi va yengil ko'mir zarrachalari oqim hosil qilib keyingi kameraga o'tadi. Shu tariqa ko'mir tarkibidagi yonmaydigan zarrachalar dastlabki kamerada qoladi va tozalangan ko'mir zarrachalari ikkinchi kameraga o'tishda issiq havo (tutun gazi) ta'siri natijasida namlik miqdori ham kamayadi. Qurilmaning navbatdagi ikkinchi va uchinchi kameralarda ham xuddi shu jarayon takrorlanadi va ko'mir tarkibidagi namlik hamda yonmaydigan zarrachalar nisbati kamayadi. Yoqilg'i zarrachalarning kamerada bo'lish vaqtini boshqarish uchun IV qo'zg'aluvchi oraliq to'siqlar ishlatildi.

Qurilmaning matematik modelida quritishga berilgan ko'mirning quritish egri chizig'i, quritish davrlari hamda mavhum qaynash holatida jarayonining kechishi ko'rib chiqilgan. Matematik modelni hisoblashda boshlang'ich parametrlar hisobga olinib quritish jarayonining material balans tenglamasi tuzildi. Hisoblar quyidagi ketma-ketlikda amalga oshirildi.

Quritish tezligi o'zgarmas bo'lgan davrda yuqorida keltirilgan fikrlar asosida gaz fazasi uchun moddiy balans tenglamasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$\varepsilon D_r \frac{d}{dz} \left(F \frac{dx_r}{dz} \right) - \varepsilon L \frac{dx_r}{dz} - (1 - \varepsilon) FN = 0 \quad (1)$$

Bu yerda N - birinchi davr uchun quritish tezligi 1/s; ε - mavhum qaynash qatlamidagi zarrachalar orasidagi bo'shliq; L - gaz fazasining hajmiy sarfi, m^3/s ; D_r - molekulyar deffuziya koeffitsienti, m^2/s ; x_r - gazning namligi kg/kg ; R_p - gaz taqsimlash tarmog'ining radiusi, m .

Quritish jarayonning birinchi davri uchun quritish tezligi egri chizig'ining tenglamasi quyidagi ko'rinishda bo'ladi:

$$- \frac{du_{cp}}{d\tau} = N \quad (2)$$

u_{cp} - ko'mirning o'rtacha namligi, kg/kg ; τ - quritish vaqti s ;

(1) va (2) tenglamalarning xususiy yechimlarini quyidagi chegaraviy shartlardan aniqlaymiz.

$$x_r|_{z=0} = x_{r.BX}, \quad (3)$$

$$\frac{dx_r}{dz}|_{z=H} = 0, \quad (4)$$

$$U_{cp}|_{\tau=0} = U_{BX}, \quad (5)$$

Bu yerda z - mavhum qaynash qatlami balandligi, m ; H - qurilmaning

balandligi, m; U_{BX} - ko'mirning qurilmaga kirishdagi namligi, kg/kg.

Zarrachalarning qurish vaqti bo'yicha taqsimlanish formulasi, ideal aralashtirish rejimida jarayonning gidrodinamikasini tavsiflovchi funksiya ko'rinishiga ega:

$$f(\tau) = \frac{1}{\tau_0} e^{-\tau/\tau_0} \quad (6)$$

Quritgichdan chiqish joyida ko'mirning o'rtacha namligi quyidagicha ifodalanadi:

$$U_{\text{BBLX}} = \int_0^{\tau_{kr}} U_{cp}(\tau) f(\tau) d\tau, \quad (7)$$

Bunda τ_0 - o'rtacha turish vaqti; F - gaz taqsimlash moslamasining panjarasidan Z masofada joylashgan sohasining ko'ndalang kesim yuzasi bo'lib, quyidagi formula yordamida hisoblanadi:

$$F = \pi(R_p + ztg \frac{\gamma}{2})^2 \quad (8)$$

(1) - tenglama differensiallanib, keltirilgan parametrlarning ifodasini qo'ysak, quyidagi ko'rinishdagi ikkinchi tartibli differensial tenglamaga ega bo'lamiz.

$$D_r \left(R_p + ztg \frac{\gamma}{2} \right)^2 \frac{d^2 x_r}{dz^2} + 2\varepsilon D_r \pi tg \frac{\gamma}{2} \left(R_p + ztg \frac{\gamma}{2} \right) \frac{dx_r}{dz} - \varepsilon L \frac{dx_r}{dz} - (1 - \varepsilon) \pi \left(R_p + ztg \frac{\gamma}{2} \right)^2 \cdot N = 0 \quad (9)$$

Bu yerda R_p - gaz taqsimlash tarmog'ining radiusi, m; γ - quritgichning konus burchagi, gradus.

(9) - tenglamaga quyidagi belgilashlarni kiritib, soddalashtirsak, quyidagi ifoda ko'rinishga keladi:

$$P(z) = \frac{2tg \frac{\gamma}{2}}{R_p + z \cdot tg \frac{\gamma}{2}} - \frac{L}{D_r \pi \left(R_p + z \cdot tg \frac{\gamma}{2} \right)^2} \quad (10)$$

$$Q(z) = 0, \quad f(z) = \frac{(1 - \varepsilon)N}{\varepsilon D_g} \quad (11)$$

$$\frac{d^2 x_r}{dz^2} + P(z) \frac{dx_r}{dz} = f(z) \quad (12)$$

(12) - tenglamani (3) - va (4) - boshlang'ich va chegaraviy shartlarni qanoatlantiruvchi yechimini topish bilan shug'ullanamiz.

Buning uchun, quyidagi ikkinchi tartibli chiziqli bir jinsli bo'lmagan oddiy differensial tenglama

$$y''(x) + P(x)y'(x) + Q(x)y(x) = f(x), \quad (13)$$

bilan birgalikda quyidagi chegaraviy shartlar qaralayotgan bo'lsin:

$$\alpha_0 y(a) + \alpha_1 y'(a) = A, \quad (14)$$

$$\beta_0 y(b) + \beta_1 y'(b) = B, \quad (15)$$

Bu yerda $P(x)$, $Q(x)$ va $f(x)$ berilgan uzluksiz funksiyalar; $\alpha_0, \alpha_1, \beta_0, \beta_1, A, B$ - ma'lum konstantalar.

(13) - chegaraviy masalani yechish uchun uni Koshi masalasiga keltirishimiz kerak. Buning uchun quyidagi almashtirishni amalga oshiramiz (superpozitsiya prinsipi):

$$y(x) = C u(x) + v(x) \quad (16)$$

Bu yerda "C" orqali hozircha noma'lum bo'lgan konstantani belgilaymiz. (16) - ifodadan ketma-ket birinchi va ikkinchi tartibli hosilalarni hisoblab, ularni (13) - tenglamaga qo'ysak, quyidagiga ega bo'lamiz.

$$C [u''(x) + P(x)u'(x) + Q(x)u(x)] + [v''(x) + P(x)v'(x) + Q(x)v(x) - f(x)] = 0, \quad (17)$$

(17) - tenglamadan quyidagi ikkita tenglamani hosil qilamiz:

$$u''(x) + P(x)u'(x) + Q(x)u(x) = 0, \quad (18)$$

$$v''(x) + P(x)v'(x) + Q(x)v(x) = f(x) \quad (19)$$

(14) - chegaraviy ya'ni $\alpha_0 y(a) + \alpha_1 y'(a) = A$ shartiga asosan (20) tenglamani (21) ko'rinishda yozamiz.

$$Y(a) = C u(a) + v(a)$$

$$Y'(a) = C u'(a) + v'(a) \quad (20)$$

$$\alpha_0 y(a) + \alpha_1 y'(a) = \alpha_0 [C u(a) + v(a)] + \alpha_1 [C u'(a) + v'(a)] = A$$

$$C [\alpha_0 u(a) + \alpha_1 u'(a)] + \alpha_0 v(a) + \alpha_1 v'(a) = A \quad (21)$$

Bunda ixtiyoriy "C" da (21) - munosabat o'rinli bo'lishi uchun "C" oldidagi koeffitsiyentning nolga teng bo'lishi zarur va yetarli, ya'ni

$$\alpha_0 u(a) + \alpha_1 u'(a) = 0, \quad (22)$$

$$\alpha_0 v(a) + \alpha_1 v'(a) = A, \quad (23)$$

(22) va (23) - tenglamalarning bajarilishi uchun

$$u(a) = \alpha_1 k, \quad u'(a) = \alpha_0 k \quad (24)$$

(24) - ifodalarni (22) – va (23) – tenglamalarga qo‘ysak yetarli bo‘ladi, bu yerda “k” noldan farqli o‘zgarmas son.

$$\alpha_0 \neq 0 \text{ bo‘lsa } v(a) = \frac{A}{\alpha_0}, \quad v'(a) = 0 \quad (25)$$

agar $\alpha_1 \neq 0$ bo‘lsa unda (26) tenglama o‘rinli bo‘ladi.


$$v(a) = 0, \quad v'(a) = \frac{A}{\alpha_1} \quad (26)$$

Yuqoridagi (18,...26) ifodalardan ko‘rinadiki (18) - bir jinsli tenglamani (24) - shartni qanoatlantiruvchi Koshi masalasining yechimi $u(x)$, (19) - bir jinsli bo‘lmagan tenglamani (25) yoki (26) shartlarni qanoatlantiruvchi Koshi masalasining yechimi $v(x)$ bo‘ldi. U holda ixtiyoriy C uchun $y(x) = C u(x) + v(x)$ funksiyasi $x = a$ chegaraviy shartni qanoatlantiradi. Endi o‘zgarmas C ni shunday tanlaymizki $y(x)$ funksiya (15) - chegaraviy shartni $x = b$ bo‘lganda qanoatlantirsa, ifoda quyidagi ko‘rinishda bo‘ladi:

$$C [\beta_0 u(b) + \beta_1 u'(b)] + \beta_0 v(b) + \beta_1 v'(b) = B \quad (26)$$


$$C = \frac{B - \beta_0 v(b) + \beta_1 v'(b)}{[\beta_0 u(b) + \beta_1 u'(b)]} \quad (27)$$

Bunda, (15) shartga asosan $\beta_0 u(b) + \beta_1 u'(b) \neq 0$ bo‘lishi kerak. Shunday qilib, (13), (14), (15) tenglamalar ikkita $u(x)$ va $v(x)$ funksiyalar uchun Koshi masalasini yechishga keltirildi. Qabul qilingan C ning qiymatini tenglamalarga qo‘yish orqali, berilayotgan havoning harorati va mavhum qaynash balandliklarini hisoblash mumkin bo‘ladi. Bundan tashqari, differensial tenglamalarni Rungi-Kutto usulida yechib, ikkala davr uchun quritish egri chizig‘i qurildi (3- rasm). Bunda birinchi davr uchun quritish tezligi o‘zgarmas bo‘ladi, ikkinchi davr uchun esa quritish tezligi kamayib borishini ko‘rishimiz mumkin. Bu esa quritish kinetikasiga mos keladi. Yuqorida keltirilgan barcha tenglamalar jarayonning birinchi davri uchun hisoblangan bo‘lib, ikkinchi davr uchun xuddi shu ketma-ketlikdan foydalaniladi, faqat chegaraviy shartlarda hamda boshlang‘ich parametrlarda o‘zgarishlar bo‘ladi. To‘liq hisoblar dissertatsiyada keltirilgan.



$$\begin{aligned} \text{I } u &= 0.5 - 0.0168t, \\ \text{II } u &= 0.13 + 0.12e^{-4.0439(t-31)} \end{aligned}$$


3-rasm. Quritish egri chizig‘i



4-rasm. Matematik modelni hisoblashning algoritmi blok – sxemasi

Keltirilgan tenglamani yechishda *MATLAB* dasturidan foydalanildi va hisoblashning algoritm blok sxemasi ishlab chiqildi (4- rasm). Algoritmida boshlang'ich parametrlarni kiritib chegaraviy shartlar qo'yilgan va differensial tenglamani superpozitsiya prinsipini qo'llash orqali soddalashtirib yechish ketma-ketligi keltirilgan. Hisoblashlar yakunida I davr uchun aniqlangan parametrlar II davrning boshlang'ich parametrlari sifatida kiritiladi hamda algoritm asosida hisoblashlar amalga oshiriladi.

Mavhum qaynash qatlamli qurilmada boyitish jarayonining kechishining tavsifi keyingi bobda berilgan. Boyitish jarayonning kechishida birinchi va ikkinchi kritik tezliklarning o'rni ahamiyatlidir. Boyitish jarayonining kechishi va qurilmaning konstruktiv hisobini amalga oshirish ancha murakkab masala hisoblanadi. Shu sababli *VISUAL BASIC* tili yordamida mavhum qaynash qatlamida quritish va boyitish jarayonining kechishi bo'yicha hisob-kitoblarni olib boruvchi dastur yaratildi (5-rasm). Dastur yordamida, boshlang'ich parametrlar qiymatlarini dastlabki oynaga kiritib natijalarni olish imkoniyati mavjud.



5-rasm. Mavhum qaynash qatlamli qurilmada ko'mirni quritish va boyitish jarayoni hisobini amalga oshiruvchi dasturdan lavha

Natijalarni aniqlash uchun hisob - kitoblar avtomatik tarzda *MS EXCEL* dasturi yordamida amalga oshiriladi va jadval hamda grafik ko'rinishidagi ifodasi shu dasturda keltiriladi. Dasturning qulayligi shundaki, Angren qo'ng'ir ko'mirining namlik va kul miqdorlari turlicha va o'zgaruvchan bo'lganda, barcha qiymatlar bo'yicha hisoblash ishlarini amalga oshirishni osonlashtirish va olingan natijalar asosida gidravlik qarshilik va havo (tutun gaz) harakat tezlikning bog'liqlik grafiklarini olish imkonini yaratadi. Dastur yordamida nafaqat ko'mir, balki boshqa polidispers materiallarda ham mavhum qaynash qatlamli quritish va boyitish jarayonining kechishini hisoblash imkoni mavjud. Faqatgina bunda materialning boshlang'ich parametrlari o'zgaradi xolos.


Dissertatsiyaning “**Mavhum qaynash qatlamli qurilmada quritish va boyitish bo'yicha tajribalar o'tkazish**” nomli III- bobida tadqiqot qurilmasi va unda o'tkazilgan tadqiqotlar hamda tadqiqotni matematik modeli yordamida olingan natijalar bilan solishtirilganligi, bundan tashqari tadqiqot qurilmasining amaliy ahamiyati, amaliyotga joriy qilish orqali olingan iqtisodiy samaradorliklar haqida ma'lumotlar keltirilgan. Tadqiqotlar o'tkazish maqsadida yaratilgan mavhum

qaynash qatlamli quritish va yonmaydigan zarrachalardan ajratuvchi qurilmaning sxemasi 6 - rasmda haqiqiy ko'rinishi 7 - rasmda keltirilgan. Qurilmada jarayonning kechishini aniqlashda qurituvchi agentning va quritiluvchi materialning asosiy parametrlarini aniqlash uchun qurilmaga qo'shimcha o'lchov - nazorat asbob - uskunalari o'rnatilgan.

Qurilmaga ko'mir berilganda mayda changsimon holatda chiqib yo'qotishlar bo'lishining oldini olish maqsadida qurilma to'liq izolyatsiya qilingan va qopqog'i ham berk qilib yasalgan.

Tadqiqotni amalga oshirish uchun qurilmaga ko'mir maydalagichdan o'tgan, ekvivalent diametri 3-10 mm oralig'idagida bo'lgan ko'mir zarrachalari olindi. Olingan tadqiqotlar natijalari dissertatsiyada to'liq keltirilgan. Olingan natijalarning bir qismi 2- jadvalda keltirilgan.

Natijalar asosida quritish jarayoni o'rganildi, jumladan namlik va haroratning o'zgarishi, ularning vaqtga bog'liqlik grafiklari qurildi.



6-rasm. Tadqiqot qurilmasining sxemasi:

1 - ventilyator; 2- sarf o'lchagich; 3-kalorifer; 4-termometr; 5- ishchi kamera; 6- psixrometr, 7 - U simon manometr



7-rasm. Tadqiqot qurilmasining fotosurati

8 - rasmda o'lchamlari turlicha bo'lgan ko'mir bo'laklari uchun quritish egri chiziq-lari keltirilgan va harorat termogrammasi olingan.


Quritish jarayonining dastlabki davrida tezlik o'zgarmas holda bo'ladi, ikkinchi davrida esa tezlik kamayib bo'radi hamda quritish vaqti qisqaradi. Bu esa quritish kinetikasiga mos keladi va quritish vaqtini aniqlash imkonini beradi. Quritish egri chizig'ini differensiallash orqali quritish tezligi egri chizig'i qurildi va bu grafik

ko‘mir strukturasi bilan namlik qanday bog‘langanligini aniqlashga yordam beradi (9- rasm).


2- jadval

Mavhum qaynash qatlamli qurilmada o‘tkazilgan tadqiqot natijalari

No	Zarrac haning mayd aligi, d, mm	Ko‘mir ning kirishdagi og‘irligi, m ₁ , gr	Ko‘mir ning chiqishdagi og‘irligi m ₂ , gr	Havoning kirishdagi harorati. t ₁ , °C	Havoning chiqishdagi harorati. t ₂ , °C	Havoning sarfi. G m ³ /s	Havoning tezligi, v, m/s	Ko‘mirning boshlang‘ich namligi u ₁ , %	Ko‘mirni quritgandan keying namligi u ₂ , %	Ko‘mirning boshlang‘ich kulliligi A ₁ , %	Ko‘mirni boyitgandan keyingi kulliligi A ₂ , %
1	(5-10)	32	26.33	80	40	160	17	28	12	41.9%	32.6%
2	(3-5)	35	24.7	80	40	160	17	28	9	40.2%	17.3%
3	(1,25-)	32,24	29.7	80	40	160	17	28	8	41.9%	20.8%
4	(3-5)	36,48	27.66	80	40	160	17	28	8.5	40.2 %	32.6




8-rasm. Quritish egri chizig‘i



9-rasm. Quritish tezligi egri chizig‘i

Tadqiqotlar natijasida qurilgan quritish egri chizig‘i bilan matematik model yordamida olingan quritish egri chiziqlarini solishtirish natijasida quyidagi grafik qurildi (10 - rasm). Bunda ko‘rishimiz mumkinki, ikkala chiziqlar orasidagi o‘zaro nomuvofiqlik 5 - 8 % ni tashkil qildi.


Boyitish jarayonini o‘rganish maqsadida mavhum qaynash egri chizig‘i tadqiqotlar o‘tkazish orqali qurildi. Bunda og‘irligi 40 gr dan 200 gr gacha bo‘lgan namunalar mavhum qaynash qatlamli qurilmadan o‘tkazildi. Qatlamning gidravlik qarshiligini “U” simon manometr yordamida aniqlab, birinchi va ikkinchi kritik tezliklar qiymatlari anemometrda o‘lchandi. Holat bir xil haroratda olib borildi va natijalar 11 - rasmda keltirilgan. Ko‘mir va uning tarkibidagi zarrachalar tufayli yuzaga keladigan gidravlik qarshilik qiymatlari aniqlandi va shu asosida boyitish jarayoni amalga oshirildi (12 - rasm).



$$\text{I } u = 0.3 - 0.075t;$$

$$\text{II } u = 0.13 - 0.02e^{(-4.0439(t-16))}$$

10-rasm. Matematik model va tajribalar natijasida qurilgan quritish egri chizig'i




$$P_1 = -186.67 \cdot v^5 + 1933.33 \cdot v^4 \pm 7833.33 \cdot v^3 + 15516.67 \cdot v^2 - 14630 \cdot v + 5300; \quad (28)$$

$$P_2 = -0.0066 \cdot v^4 + 0.3909 \cdot v^3 + -8.29 \cdot v^2 + 54.58 \cdot v + 292.05 \quad (29)$$


11-rasm. Mavhum qaynash egri chizig'i va jarayonning empirik tenglamasi

Olingan (28) va (29) - empirik tenglamalarning adekvatligini Fisher mezon yordamida aniqlandi. Mezon shartining bajarilganligi $5,38 > 3,17$ matematik modelning adekvatligini ifodalaydi.

Izlanishlar natijasida, yoqilg'ining namligi 28 % dan 8 % ga, kulliligi 40 % dan 26 % ga kamayishi, yoqilg'i yonish issiqligining o'rtacha qiymati 9200 kJ/kg dan 13390 - 16320 kJ/kg ga ortgani aniqlandi (13 va 14 - rasmlar).




12-rasm. Ko'mir va uni tarkibidagi zarrachalarga ta'sir qiluvchi gidravlik qarshilikning tezlikka bog'liqlik grafigi



$$1) Q_{q2}^i = (Q_{q1}^i + 0.0025W_1^i) \cdot \frac{100 - W_2^i}{100 - W_1^i} - 0.00251100 - W_2^i; [kJ/kg]$$

13-rasm. Ko‘mir quyi yonish issiqligining kul miqdoriga bog‘liqligi



$$2) Q_{q2}^i = Q_{q1}^i \cdot \frac{100 - A_2^i}{100 - A_1^i} [kJ/kg]$$

14-rasm. Ko‘mir quyi yonish issiqligining namlikka bog‘liqligi

Qurilmani amaliyotga tadbiiq qilish bo‘yicha ishlarning bir qismi “Angren IES” AJ da olib borildi. Natijada, 1 kVt-soat elektr energiya ishlab chiqarish uchun oldin 1,12 kg ko‘mir sarflanadigan bo‘lsa, boyitish va quritish jarayonini amalga oshirish orqali ko‘mir sarfini 0.78 kg ga tushirish mumkin bo‘ldi va shu orqali har 1000 kVt-soat elektr energiya ishlab chiqarilganda 43 750 000 so‘m iqtisodiy samaraga erishish mumkinligi aniqlandi. Yiliga stansiya o‘rtacha 1074 mln kVt-soat elektr energiya ishlab chiqaradigan bo‘lsa, yillik iqtisodiy samaradorlik 46 987 500 000 so‘mni tashkil etadi. Bundan tashqari, “Yangi Angren IES” AJ da mavhum qaynash qatlamli quritish va boyitish qurilmasi yordamida import ko‘mirlarning o‘rnini bosishi va yiliga 8 991 200 000 so‘m iqtisodiy samaradorlikka erishish imkoniyati yaratildi. Qilingan ishlar bo‘yicha to‘liq ma‘lumotlar “Issiqlik elektr stansiyalari” AJ hamda “Angren IES” AJ tomonidan olingan ma‘lumotnomada keltirilgan.

XULOSA

«Angren qo‘ng‘ir ko‘mirini kaloriyasini qayta ishlash asosida oshirish» mavzusidagi falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi bo‘yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida quyidagi xulosalar taqdim etiladi:

1. Angren qo‘ng‘ir ko‘mirining tarkibini o‘rganish, uni quritish va boyitish usullarining tahlili asosida mavhum qaynash qatlamli quritish va boyitish qurilmasi ishlab chiqildi. Natijada ko‘mirning namligi va kulliligini kamaytirish imkoniyati yaratildi.

2. Qurilma va jarayonlarning fizik, matematik modellari va hisoblash algoritmi ishlab chiqildi va yaratilgan matematik model Runge-Kutto usulida yechildi. Natijada, qabul qilingan noma‘lum son (C) qiymatini aniqlash orqali gazlar harorati

(t), mavhum qaynash balandligini (Z) hisoblash, quritish jarayonlarining nazariy quritish egri chiziqlari ($W = f(\tau)$), quritish tezligi egri chiziqlari ($\Delta W/\Delta\tau = f(W)$) olinishi bilan quritish vaqti aniqlandi ($\tau = 60 \div 200$ s).

3. Yaratilgan mavhum qaynash qatlamli quritish va boyitish laboratoriya qurilmasida fizik eksperimental tadqiqotlar olib borildi. Natijada, quritish egri chiziqlari va termogrammasi, quritish jarayoni 1- va 2 - davrlarida mavhum qaynash qatlami gidravlik qarshiligining (ΔP) issiqlik eltuvchi tezligiga (v) bog'liqligini ko'rsatuvchi empirik tenglamalar olindi hamda nazariy va eksperimental olingan tadqiqot natijalarining adekvatligi Fisher mezoni yordamida tekshirildi va mezon ko'rsatkichi $5,38 > 3,17$ qiymatni tashkil etib, adekvatlik tasdiqlandi.

4. Ko'mir uchun, mavhum qaynash qatlamli jarayonni statsionar holatga keltiruvchi gazlarning kritik tezliklar qiymati ($v_{1kr} = 4 \div 8$ m/s; $v_{2kr} = 6 \div 10$ m/s) hamda sarf bo'ladigan quvvat miqdori aniqlandi ($N = 10 \div 326$, Vt). Natijada, mavhum qaynash qatlamidagi gidrodinamik jarayonlar uchun mavhum qaynash egri chiziqlari olindi.

5. Nazariy va eksperimental tadqiqotlar ko'mirning namlik va kullilik ko'rsatkichlari bo'yicha keng oraliqlarda amalga oshirildi. Natijada yoqilg'ining issiqlik berish qobiliyatining (Q) namlik (W) va kullilik (A) ko'rsatkichlariga bog'liqlik xarakteri aniqlanib, qurilma yordamida namlik 28 % dan 8 % gacha, kullilik darajasi 40 % dan 26 % gacha kamaytirishga erishildi va issiqlik berish qobiliyati qo'shimcha 4200 - 7100 kJ/kg qiymatga oshirildi, olingan umumiy iqtisodiy samara 55 987 700 000 so'm/yilni tashkil etdi.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ УЧЕНОЙ СТЕПЕНИ
ДОКТОРА НАУК DSc 03/10.12.2019.Т.03.03 ПРИ ТАШКЕНТСКОМ
ГОСУДАРСТВЕННОМ ТЕХНИЧЕСКОМ УНИВЕРСИТЕТЕ
ИМЕНИ ИСЛАМА КАРИМОВА**

**ТАШКЕНТСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ ТЕХНИЧЕСКИЙ
УНИВЕРСИТЕТ ИМЕНИ ИСЛАМА КАРИМОВА**

КУРБАНБАЕВА МИЯССАР ШИРАЗАДИНОВНА

**ПОВЫШЕНИЕ КАЛОРИЙНОСТИ АНГРЕНСКОГО БУРОГО УГЛЯ
НА ОСНОВЕ ЕГО ПЕРЕРАБОТКИ**

05.05.04 – Промышленная теплоэнергетика

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PhD)
ПО ТЕХНИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Ташкент – 2024

Тема диссертации доктора философии (PhD) по техническим наукам зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве Высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за B2022.2.PhD/T2892.

Диссертация выполнена в Ташкентском государственном техническом университете имени Ислама Каримова.

Автореферат диссертации на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) размещен на веб-странице научного совета (www.tdtu.uz) и Информационно-образовательном портале «Ziyo Net» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Бабаходжаев Рахимжан Пачеханович
доктор технических наук, профессор

Официальные оппоненты:

Клычев Шавкат Исакович
доктор технических наук, старший научный сотрудник

Шансламов Алишер Шабдурахманович
кандидат технических наук, доцент

Ведущая организация:

АО «Теплоэлектропроект»

Защита диссертации состоится «25» июня 2024 г. в 10⁰⁰ часов на заседании научного совета DSc 03/10.12.2019. Т.03.03 при Ташкентском государственном техническом университете имени Ислама Каримова. Адрес: 100095, г Ташкент, ул. Университетская, 2. Тел.: (99871) 246-46-00; факс: (99871) 227-10-32, e-mail: tstu_info@tdtu.uz.

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ташкентского государственного технического университета имени Ислама Каримова (регистрационный номер - 390). Адрес: 100095, Ташкент, ул. Университетская, 2. Тел.: (99871) 207-14-70.

Автореферат диссертации разослан «11» июня 2024 года.
(протокол рассылки № «6» от «10» июня 2024 года).



К.Р. Аллаев
Председатель научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, профессор,
академик

И.У. Рахмонов
Ученый секретарь научного совета
по присуждению ученых степеней,
доктор технических наук, профессор

А.М. Мирзабаев
Заместитель председатель научного семинара
при научном совете по присуждению ученой степени,
доктор технических наук, профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертационной работы. В мире уделяется особое внимание вопросам анализа методов и устройств, снижающих влажность и зольность угля и разработке на их основе новых технологий повышения эффективности производства электроэнергии, снижения количества потребляемого топлива, улучшения его качества, снижения количества вредных газов, выбрасываемых в окружающую среду. В 2022 году в развитых странах объем топлива, направляемого на энергетические предприятия, особенно тепловые электростанции, составил 12,5 млрд тонн, из которых около 30% приходится на уголь³. Этот показатель составляет 19,7% в США и 17,3% в России. В то же время рост спроса на уголь в мировом масштабе связан с негативными последствиями, так как имеет место ухудшение его качественных характеристик и снижение эффективности работы электрогенерирующих предприятий. В связи с этим уделяется особое внимание улучшению качества и увеличению значения теплотворной способности угля за счет применения новых технологий.

В мире проводятся научные исследования, направленные на внедрение новых технологий обработки материалов на основе установок сушки и обогащения, позволяющие повысить эффективность в химической, сельскохозяйственной, энергетической отраслях, а также в здравоохранении. В этом направлении, в частности, на ТЭС приоритетными считаются исследования, учитывающие влажность, зольность и теплотворную способность топлива, влияющих на снижение расхода условного топлива, используемого на производство 1 ГДж тепла.

В этой связи необходима разработка нового метода, учитывающего анализ имеющихся методов и устройств, улучшающих качество угля и снижающих количество влаги и золы, оценка их преимуществ, в том числе создание посредством расчетов математической модели и алгоритма расчета тепловых процессов характеризующих предложенный метод, а также создание программных продуктов, позволяющих анализировать течение гидродинамических процессов. Всё перечисленное считается актуальными задачами на сегодняшний день.

В республике с целью снижения энергоемкости отраслей экономики в полтора раза к 2030 году осуществляются широкомасштабные мероприятия по усовершенствованию существующих, созданию и внедрению новых технологических решений. В “Стратегии развития Нового Узбекистана на 2022-2026 годы указаны задачи, в том числе “... по бесперебойному обеспечению экономики электрической энергией, а также по активному внедрению технологий “Зеленой экономики” во все отрасли, повышение энергетической эффективности экономики на 20% и снижение выбросов вредных газов в атмосферу на 20%”⁴. При осуществлении этих задач, в частности при разработке и внедрении комплекса мер по рациональному

³ https://ru.theglobaleconomy.com/Uzbekistan/coal_consumption/

⁴ O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo'ljallangan

использованию энергетических ресурсов в направлении снижения энергоемкости производства электрической энергии и тепла на промышленных предприятиях, моделировании методов повышения качества топливных ресурсов, является важным проведение научных исследований, основанных на анализе классических и современных методов, направленных на снижение расхода условного топлива при производстве электрической и тепловой энергии

